

Tasdiqlayman
“ANOR BANK” AJ
Boshqaruv raisi
Akramov Sh. S.

“Mobil aloqaga to‘lang va sovrinlarni oling” AKSIYANI O‘TKAZISH QOIDALARI

1. Ushbu qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga (keyingi o‘rinlarda O‘zR FK deb yuritiladi) muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu qoidalar ishtirok etish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash va Sovrinni topshirish tartibini, shuningdek “ANOR BANK” AJ tomonidan tashkil etilgan “Anorbank ilovasida mobil aloqa operatori uchun to‘lov” aksiyasini tashkil etish va o‘tkazishning boshqa muhim shartlarini tavsiflaydi.

Ushbu qoidalar O‘zbekiston Respublikasi hududida “Anorbank” ilovasini ommalashtirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbir bo‘lgan “Anorbank ilovasida mobil aloqa operatori uchun to‘lov” aksiyasini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Aksiyaning tashkilotchisi “ANOR BANK” AJ (“ANORBANK” savdo belgisi egasi) hisoblanadi, yuridik manzili: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayram 5-tor ko‘chasi, 4 uy; tel.: +998 55 503-00-00, bundan keyin matnda “Tashkilotchi” deb nomlanadi.

3. Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin emas va aksiya ishtirokchilari aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xatarlarga ega emaslar. Aksiyani o‘tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan haq to‘lash bilan bog‘liq emas va aksiyaning sovrin jamg‘armasi faqat tashkilotchi mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

4. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi tashkilotchi mablag‘lari hisobidan shakllantirilib, pul sovrinlaridan iboratdir.

Umumiy sovrin jamg‘armasi, daromad solig‘i chegirib tashlangan holda, 25 000 000 (yigirma besh million) so‘mni tashkil etadi. Sovrin jamg‘armasi quyidagi tarzda taqsimlanadi:

bitta bosh sovrin:

- 5 000 000 (besh million) so‘m;

qolgan mukofotlar:

- 300 000 (uch yuz ming) so‘m – umumiy sovrinlar soni 20 ta;
- 500 000 (besh yuz ming) so‘m – umumiy sovrinlar soni 10 ta;
- 1 000 000 (bir million) so‘m – umumiy sovrinlar soni 5 ta;
- 2 000 000 (ikki million) so‘m – umumiy sovrinlar soni 2 ta.

5. Aksiya o‘tkazish muddati:

5.1. Boshlanish sanasi – 2022-yil “1” mart

5.2 Yakunlanish sanasi — 2022-yil “23” mart

5.3. 2022-yil 24-mart kuni Toshkent vaqt bilan soat 10:00 dan 23:00 gacha 38 (o‘ttiz sakkiz) nafar aksiya g‘oliblari aniqlanadi.

5.4. Aksiya g‘oliblarini aniqlash yakunlari bo‘yicha pul sovrinini o‘tkazish muddati:

Aksiya g‘oliblari e‘lon qilingan kundan boshlab 10 (o‘n) kalender kunidan kechiktirmay, ushbu Qoidalarning 8-bandida ko‘rsatilgan, g‘olibdan talab qilinadigan barcha ma’lumotlarni bir vaqtning o‘zida taqdim etilganda.

Agar Aksiya G‘olibi ushbu Qoidalarning 8-bandida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni taqdim etmasa, u g‘alaba qozonish huquqidан mahrum bo‘ladi.

6. Aksiyada ishtirok etish shartlari:

Aksiya ishtirokchisi bo‘lishni istagan har bir kishi bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarni bajarishi kerak:

a) “Anorbank” ilovasining ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchisi bo‘lishi va Aksiyani o‘tkazish davrida “Anorbank” ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan bank kartasiga ega bo‘lishi kerak;

6) Aksiya o‘tkazilishi davrida “Anorbank” ilovasi orqali mobil aloqa operatori uchun to‘lovni 2022-yil 23-mart soat 23:59 gacha amalga oshirishi kerak. Belgilangan vaqt dan so‘ng, Aksiyaga qilingan to‘lovlar ishtirok etmaydi.

b) Aksiyada ishtirok etish uchun kamida 10 000 (o‘n ming) so‘m miqdoridagi to‘lovni amalga oshirishi kerak.

7. Aksiyani o‘tkazish va aksiya g‘oliblarini aniqlash tartibi:

Aksiya o‘tkaziladigan butun muddat davomida g‘oliblarning umumiy soni 38 (o‘ttiz sakkiz) nafarni tashkil etadi.

Aksiya g‘oliblarini aniqlash uchun “Anorbank” ilovasida to‘lov amalga oshirilganda berilgan individual raqamlar (matnda keyingi o‘rinlarda “ID” deb nomlanadi), aksiya g‘oliblarini aniqlash kunida “Random” elektron dasturiga (tasodifiy sonlarni tanlash generatoriga) tushiriladi (yuklanadi).

Sovrinni olish huquqiga ega bo‘lgan aksiyaning g‘olibi aksiya ishtirokchisi bo‘lib, uning ID si “Random” dasturi tomonidan aksiyani o‘tkazish va aksiya g‘olibini aniqlash uchun quyidagi algoritmi bilan tanlanadi.

Aksiya o‘tkazish algoritmi va aksiya g‘oliblarini aniqlash bosqichma-bosqich qadamlardan iborat jarayondir:

a) Aksiya g‘oliblarini aniqlash uchun Tashkilotchi mazkur Qoidalarning 6-bandida ko‘rsatilgan aksiyada ishtirok etish uchun barcha shart-sharoitlarni bajargan va “Anorbank” ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar ID lari ro‘yxatini “Random” dasturiga tushiradi (yuklaydi);

6) “Random” dasturiga foydalanuvchilarning ID lari ro‘yxati yuklanadi va dastur tasodifiy tanlov orqali G‘olibning ID sini aniqlaydi.

Aksiya davomida aksiya g‘olibini aniqlash natijasini oldindan belgilash imkonini beruvchi tartib-tamoyillar va algoritmlar qo‘llanilmaydi.

Aksiya davrida ID lar ro‘yxatining hisoboti (tushirilishi) dastlabki ma’lumotlar hisoblanib, ularni yuqorida ko‘rsatilgan algoritmgaga muvofiq ishlash jarayonida aksiyaning muayyan g‘olibini aniqlash uchun faqat bitta yutuqli ID chiqarib beriladi.

Ushbu jarayon 38 (o‘ttiz sakkiz) marta bajariladi va bunda:

- birinchidan yigirmanchigacha bo‘lgan random 300 000 (uch yuz ming) so‘m yutib oladigan 20 ta g‘oliblarni aniqlab beradi
- yigirma birinchidan o‘ttizinchigacha bo‘lgan random 500 000 (besh yuz ming) so‘m yutib oladigan 10 ta g‘oliblarni aniqlab beradi
- o‘ttiz birinchidan o‘ttiz beshinchigacha bo‘lgan random 1 000 000 (bir million) so‘m yutib oladigan 5 ta g‘oliblarni aniqlab beradi
- o‘ttiz oltinchidan o‘ttiz yettinchingacha bo‘lgan random 2 000 000 (ikki million) so‘m yutib oladigan 2 ta g‘oliblarni aniqlab beradi
- o‘ttiz sakkizinchi random 5 000 000 (besh million) so‘m super sovrin yutib oladigan g‘olibini aniqlab beradi

8. Aksiya g‘oliblariga pul sovrinlarini berish tartibi:

Aksiya o‘tkazilgandan so‘ng Aksiya g‘olibi “Anorbank” ilovasida uning g‘olib deb topilganligi va sovrin yutug‘i haqida push xabarnomasini oladi. Bundan keyin, bank kartasiga sovrinni o‘tkazish va barcha soliqlarni to‘lash uchun, Aksiya g‘olibi servis Tashkilotchisi xodimiga soliq to‘lovchining identifikasiya raqami, bank kartasi raqami va bank kartasi chiqarilishini amalga oshirgan bank rekvizitlarini (MFO, STIR, bankning tranzit hisobini) har qanday qulay tarzda topshirishi kerak. Bunda g‘olib o‘z kartasiga Tashkilotchi tomonidan barcha soliqlar to‘langanidan keyin ushbu Qoidalarning 4-bandida ko‘rsatilgan sovrinlardan birini oladi.

Sovrin g‘olibga “Anorbank” ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan shaxsiy bank kartasining karta hisobvarag‘iga ko‘rsatilgan hujjatlar taqdim etilganda o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O‘zR SK 377-modda 5-bandiga muvofiq pul mukofoti boshqa daromad sifatida jismoniy shaxslarning daromadlariga (JSHDS) soliq solinadi.

Tashkilotchi o‘zining anorbank.uz manzilidagi internet-saytida va web -ilovasida tegishli axborotni joylashtirish orqali istalgan vaqtida ushbu qoidalarga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish huquqini bir tomonlama so‘zsiz tartibda o‘zida saqlab qoladi.

9. Aksiyada ishtirok etish Aksiya ishtirokchisi tomonidan anorbank.uz da joylashtirilgan Qoidalarning to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishini, va shuningdek, tashkilotchi tomonidan o‘tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar va aksiyalarda ishtirok etish, shuningdek, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga, shuningdek, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun ishtirokchi tomonidan mobil ilovada ro‘yxatdan o‘tkazishda taqdim etilgan shaxsiy ma’lumotlarini ishlatalishiga rozilagini anglatadi.

Ташкилотчи иштирокчи билан турли алоқа воситалари, жумладан (чекловларсиз) почта жўнатмалари, иштирокчининг электрон почта манзилига (e-mail), мобил телефонига (СМС-хабарлаш орқали) тегишли ахборотларнинг, шу жумладан, "реклама тўғрисида" ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-моддаси (25.12.1998 йилдаги 723- I -сон) маъносидағи реклама тушунчасига мос келадиган ахборотларни тарқатиш, шунингдек ташкилотчи томонидан Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун хужжатларида назарда тутилган мажбуриятларни бажариш мақсадида бевосита алоқаларни амалга ошириши мумкин.

Aksiyada ishtirok etishi bilan ishtirokchi o‘z xohish-irodasi bilan va o‘z manfaatlari yo‘lida harakat qilib, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq Tashkilotchiga (shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minalash va ularni qayta ishslash uchun shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilgan holda (ularni to‘plash, yozish, tizimlashtirish, yig‘ish, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), foydalanish, tarqatish, taqdim etish, uzatish (shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi hududida), Tashkilotchi va uning kontragentlari tomonidan ishtirokchining shaxsiy ma’lumotlarini blokirovkalash va yo‘q qilish, shu jumladan avtomatizatsiya vositalari va avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, boshqa dasturiy vositalar, shuningdek, ishtirokchining shaxsiy ma’lumotlarini qo‘lda, avtomatlashtirilgan va aralash usulda, ham “ANOR BANK” AJ ichki tarmog‘i va uning kontragentlari, ham Internet tarmog‘i orqali va ham usiz, qayta ishslash uchun o‘z rozilagini beradi.

Amaldagi qayta ishslash usullari, shu jumladan (cheklovlarsiz), ma’lumotlar bazasini kerakli mezonlarga ko‘ra segmentatsiyalashni o‘z ichiga oladi. Ushbu rozilik ishtirokchi tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan yoki ishtirokchining istalgan shaxsiy ma’lumotlariga, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug‘ilgan yili, oy, sanasi (O‘zR qonunchiligidagi, xususan, O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda — shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari (pasport), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma’lumotlarga nisbatan har qanday harakatni amalga oshirishga beriladi.

Ishtirokchining shaxsiy ma’lumotlarini ushbu qoidalarga muvofiq qayta ishslashga jalg etiladigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi “ANOR BANK” AJga ishtirokchi tomonidan taqdim etiladi va qo‘shimcha kelishuvni talab qilmaydi.

Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma’lumotlarni ishslash O‘zR amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Aksiyada ishtirok etib, Aksiya g‘olibi deb topilgan ishtirokchi Tashkilotchining anorbank.uz manzili bo‘yicha saytida, shu jumladan bosma nashrlar, radio va televiedeniye

dasturlari, shuningdek (cheklovlarsiz) Instagram, Youtube, Facebook kabi Internet-ommaviy axborot vositalari va axborotlarni ommaviy tarqatishning boshqa vositalarida o‘z ismini, familiyasini, otasining ismini va tasvirlarini (rasmlarini) joylashtirishga rozilik beradi.

11. Ushbu qoidalarni buzgan taqdirda, tashkilotchi aksiya ishtirokchisini aksiyada ishtirok etishdan so‘zsiz chetlatishga haqli. Shu bilan birga, tashkilotchi tegishli ishtirokchiga nisbatan o‘z harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.

12. Aksiya ishtirokchisi o‘zi haqida aniq bo‘lmagan va/yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar ko‘rsatganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini to‘la hajmda zimmasiga oladi.

13. Ushbu rag‘batlantiruvchi tadbirga muvofiq Aksiyani o‘tkazish natijasi yakuniy hisoblanadi va sud tartibida e’tirozga uchramaydi.14. Акция иштирокчиси исталган вақтда Акция ташкилотчиларига мурожаат қилиб, Акцияда иштирок этишдан воз кечишга ҳақли.

15. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisi yoki uchinchi shaxsda ushbu aksiya o‘tkazilishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan birorta va hech qanday xarajatlarni qoplamaydi.

Tashkilotchi telekommunikaksiya va energetika tarmoqlarida uzilishlar, zararli dasturlarning ta’sirlari, shuningdek “ANOR BANK” AJ ning dasturiy va/yoki apparat majmuasidan ruxsatsiz foydalanish va/yoki ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noinsoflik bilan qilgan xatti-harakatlari oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozimlik darajasida bajarmaganlik uchun javobgar bo‘lmaydi.

Aksiya Tashkilotchisi, agar biron sababga ko‘ra, ushbu aksiya yoki uning biron bir qismi kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyatsiya, ruxsatsiz aralashish, soxtalashtirish, texnik muammolar yoki tashkilotchi va/yoki “ANOR BANK” AJ tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday sababga ko‘ra aksianing bajarilishiga, xavfsizligiga, halolligiga, yaxlitligiga putur yetkazadigan yoki ta’sir qiladigan bo‘lsa, aksiya o‘tkazilishini bir tomonlama bekor qilish yoki to‘xtatib turish huquqiga ega.

16. Tashkilotchining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada qatnashishi mumkin emas.

17. Tashkilotchi anorbank.uz da tegishli ma’lumotni joylashtirish orqali istalgan vaqtida Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmsandan, mazkur Qoidalarga o‘zgartirish va/yoki qo‘sishchalar kiritish, aksiya o‘tkazilishini to‘xtatish/to‘xtatib turish/bekor qilish huquqini so‘zsiz o‘zida saqlab qoladi.